



UDK: 796.015.3

Kamola SUVANOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti, PhD

E-mail: kamolasuvanova6@gmail.com

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI HAMKORLIKDA O'QITISHDA ART-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI TASHKIL ETISH

Аннотация

Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitishning art-pedagogik shart-sharoitlarini tashkil etishning nazariy va metodik asoslari tadqiq etilgan. Hamkorlikda o'qitish jarayonini samarali tashkil etishning bosqichli algoritmi hamda majburiy fanlar, mustaqil ta'lim va malakaviy amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlovchi pedagogik mexanizmlar hamda art-pedagogik texnologiyalarni ta'lim muhitiga joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivligini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: art-pedagogik texnologiyalar, hamkorlikda o'qitish, pedagogik shart-sharoitlar, integrativ omillar majmuasi, kollaborativ kompetensiya, emotsional-refleksiv tayyorgarlik, psixologik xavfsiz muhit, vizual ekspressiya.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВМЕСТНОМ ОБУЧЕНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье исследуются теоретические и методические основы организации арт-педагогических условий совместного обучения будущих учителей в современном процессе высшего образования. Представлен поэтапный алгоритм эффективной организации процесса совместного обучения, а также педагогические механизмы, обеспечивающие неразрывную связь между обязательными дисциплинами, самостоятельным образованием и квалификационной практикой. Разработаны методические рекомендации по повышению профессиональной адаптивности будущих учителей посредством внедрения арт-педагогических технологий в образовательную среду.

Ключевые слова: арт-педагогические технологии, совместное обучение, педагогические условия, комплекс интегративных факторов, коллаборативная компетенция, эмоционально-рефлексивная подготовка, психологически безопасная среда, визуальная экспрессия.

ESTABLISHING PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPLEMENTING ART-PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF COLLABORATIVE TEACHER TRAINING

Annotation

This article explores the theoretical and methodological foundations for organizing art-pedagogical conditions for the collaborative learning of future teachers within the modern higher education process. It presents a step-by-step algorithm for the effective organization of the collaborative learning process, along with pedagogical mechanisms that ensure an integral connection between core subjects, independent study, and teaching practicum. Furthermore, the study offers methodological recommendations for enhancing the professional adaptability of future teachers by integrating art-pedagogical technologies into the educational environment.

Keywords: art-pedagogical technologies, collaborative learning, pedagogical conditions, complex of integrative factors, collaborative competence, emotional-reflexive training, psychologically safe environment, visual expression.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish jarayonida art-pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari-bu zamonaviy ta'lim muhitida talaba shaxsining ijodiy (kreativ), emotsional-refleksiv, kommunikativ hamda kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ omillar majmuasidir. Bunday sharoitlar, avvalo, bo'lajak o'qituvchilar uchun psixologik xavfsiz, o'zini erkin ifoda eta oladigan, fikrlar xilma-xilligini hurmat qiladigan va professional muloqotga ochiq muhitni shakllantirishni talab qiladi. Art-pedagogik yondashuvning markazida shaxsning ichki emotsional jarayonlari, tasavvuri, estetik idroki va badiiy ifoda orqali o'zini anglashi turgani uchun, hamkorlikda o'qitish tizimida ushbu jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Mazkur muhit o'z

ichiga refleksiv jarayonlarni faol qo'llab borish, bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida ochiq muloqot, yuzaga keladigan kollaborativ vazifalarni ijodiy yechishga yo'naltirilgan psixologik tayyorgarlik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishni oladi. Pedagogik shart-sharoitlarning samarali tashkil etilishi art-pedagogik metodlar-drama, improvizatsiya, musiqiy refleksiya, zentangle, vizual ekspressiya, kollaj, boshqa badiiy faoliyat turlarining bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida chuqur integratsiyalashuvini ta'minlaydi [1].

Buning uchun, birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarda art-pedagogik texnologiyalar mohiyati, ularning psixologik asoslari va amaliy qo'llanish usullari bo'yicha nazariy tayyorgarlik bo'lishi talab etiladi. Ikkinchidan, art-pedagogik faoliyatni tashkil etishda bo'lajak o'qituvchining motivatsion

tayyorgarligi, ijodiy tashabbus ko'rsatishi, yangi uslublarni qo'llashga ochiqligi ham muhim pedagogik shartlardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, art-pedagogika muammosi E.Eisner, H.Gardner va L.Vygotskiy kabi xalqaro miqyosdagi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. E.Eisner san'atni inson tafakkurini rivojlantiruvchi va dunyoni estetik idrok etishga yordam beruvchi metodologik vosita sifatida baholaydi. Shu bilan birga, hamkorlikda o'qitish (collaborative learning) texnologiyalari D.Johnson va R.Johnson ishlarida jamoaviy faoliyatning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida asoslangan. Biroq, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida art-pedagogik vositalar va hamkorlikda o'qitish metodikasining integrativ pedagogik shart-sharoitlari hali yetarlicha yaxlit tizim sifatida o'rganilmagan. Art-pedagogik metodlar jamoaviy faoliyatga asoslangan bo'lgani sababli, bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro ishonch, fikr almashish madaniyati, konstruktiv o'zaro ta'sir va o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lgan pedagogik hamkorlik muhiti shakllantirilishi lozim. Bu jarayonda rahbarning qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi, hamkorlikni rag'batlantiruvchi boshqaruv yondashuvi, o'qituvchilarning tashabbusini qadrlash kabi tashkiliy sharoitlar ham katta rol o'ynaydi [3-5].

Art-pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida mashg'ulotlar mazmunini bo'lajak o'qituvchilarning

professional ehtiyojlariga moslashtirish, ularni real pedagogik muammolarni ijodiy hal qilishga yo'naltirish, turli san'at turlari orqali shaxsiy va jamoaviy tajribani qayta anglash imkoniyatini yaratish zarur. Shu bilan birga, art-pedagogika usullari reflektiv tafakkurni faollashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgani sababli, ta'lim jarayonida muntazam refleksiya, his-tuyg'ular bilan ishlash, o'zini baholash va o'zgarishlarni kuzatib borish amaliyotini joriy etish ham muhim pedagogik shart hisoblanadi. Hamkorlikda o'qitish jarayonida art-pedagogikaning qo'llanishi bo'lajak o'qituvchilarda kollektiv fikrlash, rolli taqsimot, murosaga kelish, emotsional moslashuvchanlik, jamoaviy qaror qabul qilish, konfliktlarni badiiy ekspressiya orqali yengillashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi, bu esa pedagogik shart-sharoitlarning mazmunini yanada kengaytiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy tafakkurni rag'batlantirish uchun mashg'ulotlar badiiy xarakterdagi jamoaviy mashqlar, art-treninglar, vizual chizish, badiiy metafora bilan ishlash, jismoniy harakat va musiqaqa asoslangan improvizatsion mashqlar bilan boyitilishi talab etiladi. [6]. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda stressni boshqarish, emotsional zo'riqishni kamaytirish, professional charchoqni yengillashtirish kabi jarayonlarga xizmat qiluvchi art-terapevtik elementlarning mavjudligi art-pedagogik shart-sharoitlarni yanada mustahkamlaydi.


Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligi



Ushbu rasmda bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishini beshta fundamental komponent orqali ifodalaydi. Har bir komponent o'zaro iyerarxik bog'liqlikda bo'lib, yakuniy maqsad-kollaborativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan. Art-pedagogik texnologiyalarning samarali ishlashi uchun moddiy-texnik resurslar-vizual materiallar, rangli materiallar, multimediya vositalari, sahna atributlari, musiqa jihozlari, grafik vositalar, yorug'lik va ovoz texnologiyalari bilan ta'minlash ham ta'lim muassasasining muhim pedagogik sharoitidir. Mazkur sharoitlarga qo'shimcha ravishda mashg'ulotlarni tashkil qilishda modul-topshiriqlar tizimi, jamoaviy loyihalar, badiiy kompozitsiyalar yaratish, sinfda badiiy ifoda uchun xavfsiz joy ajratish, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, art-pedagogik faoliyat jarayonida individual va guruh dinamikasini kuzatib borish kabi tashkiliy-metodik jihatlar ham alohida e'tibor talab qiladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning art-pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishi bo'yicha monitoring, diagnostika, professional

o'sish xaritalari va jamoaviy ko'nikmalar o'sishini baholash tizimini joriy etish ham zarur pedagogik shart sifatida qaraladi.

Natijalar. Art-pedagogik texnologiyalar samaradorligi, avvalo, bo'lajak o'qituvchining o'zini ochishga tayyorligi, jamoaviy ijod uchun psixologik muhitning qulayligi, hamkorlikda o'qitish jarayonida ijodiy faoliyatning mazmunli tashkil etilishi hamda art-pedagogik jarayonni boshqarishdagi metodik yondashuvlarning aniqligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitishda art-pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari o'z ichiga psixologik xavfsiz muhit, ijodiy ifoda uchun imkoniyat, art-pedagogik metodlarning puxta o'ylangan integratsiyasi, tashkilot tomonidan yaratilgan moddiy-texnik baza, o'qituvchining professional tayyorgarligi, jamoaviy muloqot va reflektiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi omillarni qamrab oladi. Mazkur shart-sharoitlar majmuaviy ta'minlangan taqdirdagina art-pedagogika o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish jarayonida shaxsiy va kasbiy rivojlanishni jadallashtiruvchi samarali texnologiyaga aylanadi.




hamkorlikka asoslangan ijobiy, erkin va ishonchli muhitni ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishi va ijodiy tashabbus ko'rsatishiga sharoit yaratish, qo'llab-quvvatlash va refleksiyaga yo'naltirilgan munosabatni shakllantirish	Art-pedagogik muhitda hamkorlikni tashkil etishning asosi sifatida jamoaviy ish shakllari, jumladan, kichik guruhlar, juftlikda ishlash va ijodiy jamoalar faoliyati tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi. Bu jarayonda nafaqat bilim almashish, balki "talaba – talaba" (peer-learning) va "o'qituvchi – trener" formatidagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish orqali an'anaviy iyerarxik yondashuvdan voz kechiladi. Natijada ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida teng huquqlilik va subyekt-subyekt munosabatlari ta'minlanadi, bu esa bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro ishonch, kasbiy empatiya va jamoaviy mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.	maqsad va mazmunga mos art-usullarni qo'llash: rasm chizish (izoterapiya elementlari), musiqiy ifoda, drama va rolli o'yinlar, kollaj
--	---	---

Psixologik-pedagogik muhitni yaratishda birinchi navbatda hamkorlikka asoslangan ijobiy, erkin va ishonchli muhitni ta'minlash zarur. Ijobiy muhit bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida raqobat emas, balki hamkorlik ustuvor bo'lishini anglatadi. Bunday muhitda ishtirokchilar o'zlarini xavfsiz his qiladi, o'z fikrini ochiq ifodalashdan cho'chimaydi va ijodiy tajriba o'tkazishga tayyor bo'ladi. Ishonch muhitining mavjudligi art-pedagogik faoliyatning samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki ijodiy faoliyat jarayonida shaxs o'zining ichki dunyosini namoyon etadi.

Muhokama. Hamkorlikka yo'naltirilgan ta'lim modelining muhim tamoyillaridan biri-teng huquqlilik va

subyekt-subyekt munosabatlarini ta'minlashdir. Art-pedagogik texnologiyalar aynan shu tamoyilga asoslanadi, chunki ijodiy faoliyatda barcha ishtirokchilarning fikri va hissasi birdek ahamiyatga ega. Subyekt-subyekt munosabatlari bo'lajak o'qituvchilarning o'zini pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi sifatida his etishiga, kasbiy o'zini anglash va o'zini rivojlantirish ehtiyojining kuchayishiga olib keladi. Shu tariqa, hamkorlikka yo'naltirilgan ta'lim modeli art-pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun tashkiliy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi va o'qituvchilarning ijodiy, refleksiv hamda kommunikativ rivojlanishini ta'minlaydi.



O'qituvchilarni hamkorlikda o'qitishda art-pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ta'lim mazmunining integrativ xarakterga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Integrativ yondashuv zamonaviy ta'lim paradigmasining muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u turli fanlar, nazariy qarashlar va faoliyat turlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali shaxsning yaxlit rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Art-pedagogik texnologiyalar aynan integrativlik asosida qurilgani sababli, ularni qo'llash jarayonida ta'lim mazmunining fragmentar emas, balki tizimli va kompleks bo'lishi talab etiladi.

Xulosa. Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitishda art-pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini tashkil etish masalasi tahlil qilinib, quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi: Ta'lim mazmunining integrativligi kasbiy muammolarni art-vositalar (rasm, sahnalashtirish, metafora, hikoya) orqali tahlil qilish jarayonida o'zining amaliy ifodasini topadi. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchiga an'anaviy tahlildan farqli o'laroq, mavjud pedagogik muammolarni obrazli va

ramziy darajada anglash hamda ularga ijodiy yechimlar topish imkonini beradi.

Art-vositalar yordamida tahlil qilingan kasbiy vaziyatlar talabaning shaxsiy tajribasi bilan uzviy bog'lanadi. Bu esa muammoning shunchaki nazariy qabul qilinishidan voz kechib, uni chuqur subyektiv idrok etishga va kasbiy refleksiyaning yangi bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Hamkorlikda olib borilgan art-tahlil jarayoni bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida "o'zaro o'qitish" (peer-learning) muhitini yaratadi. Talabalar bir-birining ijodiy mahsulotlari va yondashuvlarini solishtirish orqali turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni, ziddiyatli vaziyatlarda hamkorlik qilishni va muammoning muqobil (alternativ) yechimlarini jamoaviy ishlab chiqishni o'rganadilar. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda art-pedagogik shart-sharoitlarni tashkil etish - ularda nafaqat metodik ko'nikmalarni, balki kasbiy moslashuvchanlik va ijtimoiy faollikni ham shakllantiradi. Bu esa oliy ta'lim tizimidagi dars mashg'ulotlarini quruq axborot uzatishdan, shaxsning intellektual va emotsional salohiyatini rivojlantiruvchi jonli pedagogik jarayonga aylantirishning asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh., Choriyev R. Hamkorlik pedagogikasi. -T.: «KamronPress», 2016.
2. Maller, J.B.Co-operation and Competition: An Experimental Study in Motivation / J.B.Maller. - Teach .Coll.,1929
3. Barnard C.I.The Functions of The Executive/C.I.Barnard.-Harvard,1938.-384 p
4. Макареня А.А.Избранные труды. В 3-х томах.-Тюмень:ТОГИРРО, 2000.
5. Ушинский К.Д.О пользе педагогической литературы.Избр.пед.соч. В.2 т.-М., 1974, т. 2,304-326 с.